

## **PEDAGOGIK MAHORATNING O'QITUVCHI FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI**

Olimova Dono Shokirovna

TTA Urganch filiali, O'zbek tili va adabiyoti, tillar kafedrasi mudiri, p.f.n.

Qadamova Barnokhon

TTA Urganch filiali 1-bosqich magistranti

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada o'qituvchilik kasbining yosh avlod kamoloti, yoshlarga ta'lif va tarbiya berish jarayonidagi o'rni, shu bilan birga pedagogik faoliyatning uzlusiz rivojlanishini ta'kidlab, o'qituvchilik kasbi doirasidagi pedagogik mahoratni doimiy ravishda oshirish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** pedagogika, metodika, mahorat, yondashuv, ta'lif, o'qitish, psixologiya, xulq-atvor.

### **Annotation:**

This article talks about the role of the teaching profession in the development of the young generation, in the process of education and upbringing of young people, and at the same time, the continuous development of pedagogical activity, and the continuous improvement of pedagogical skills within the teaching profession.

**Key words:** pedagogy, methodology, skill, approach, education, training, psychology, behavior.

Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o'qituvchisidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o'z fanini chuqr bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali boiishni talab qiladi. Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonalardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalg etilgan. Mazkur holat yosh avlod




tarbiyasi, uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Hozirgi zamон pedagogikasi va psixologiyasi "pedagogik mahorat" tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumladan, "Pedagogik ensiklopediya"da ta'rif quyidagicha izohlangan: "O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis".[1] Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

- ◆ Madaniyatning yuqori darjasи, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatkichi;
- ◆ O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi;
- ◆ Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi;
- ◆ O'quv - tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlardan iborat:





Pedagogik mahorat o'qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lif - tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy - ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Pedagogik mahorat o'qituvchilarning pedagogik faoliyati zamirida takomillashib boradi.

L.P. Rachenko pedagogik mahoratni pedagogik san'atning bir qismi sifatida ta'riflab, shunday yozadi: "Pedagogik mahorat deganda o'qituvchining pedagogik psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko'nikmalami mukammal egallashi, o'z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyaci, hayotga axloqiyestetik munosabatda bo'lishi, o'z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat'iy irodasi tushuniladi".[2] Pedagogik mahorat o'qituvchi va tarbiyachilarni pedagogik ijodkorlikka, pedagogik texnikaga, ta'lif jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga, muloqot taktikasiga, nutq madaniyatiga, tafakkurga, ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va amalga oshirishga o'rgatadi, o'quv jarayonida xulq-atvor va hissiyotlarni jilovlash xususiyatlarini o'rgatuvchi jarayon bo'lib, u o'z kasbini rivojlantiruvchi pedagogik faoliyat tizimi haqida ma'lumot beradi. Pedagogik mahorat o'qituvchilarning pedagogik faoliyati asosida shakllanadi [3].

Shuni alohida qayd etib o'tish zarurki, o'qituvchilik kasbi murakkab va mas'uliyatli jarayondan iborat. Ushbu kasbning sharafliligi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, o'qituvchi doimo ongning yagona sohib bo'lmish insonning ta'lif-tarbiyasi bilan shug'ullanib, u bilan muloqot olib boradi. Ongli va tirik jonzot esa aqliy, ruhiy hamda jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo'ladi. Shu sababli, bolajak o'qituvchilar tarbiyalanuvchi bilan doimiy muloqotda bo'lishi, unga ta'sir ko'rsatishi uchun muntazam ravishda psixologiya va tarbiya nazariyasini mukammal o'rganib, o'z kasbiy faoliyatini muttasil rivojlantirib borishi kerak.

O'qituvchining pedagogik mahorati pedagogika oliy ta'lif muassasalarida shakllanib boradi. Yuksak saviyali pedagogik kadrlar tayyorlashga nisbatan talablar, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, o'z kasbi

bilan uzluksiz taraqqiyotga moslasha oladigan o‘qituvchining shakllanishi, bo‘lajak o‘qituvchi umummilliy mavqeining o‘sib borishini ta’minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi, (M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar) -T ..“IQTISOD-MOLIYA”, 2007-380 b.
2. Раченко И.П. Интегрированная педагогика. Часть 1. Пятигорск: Изд. Пятигорского государственного лингвистического университета, 1997. –С.212
3. Aziza Aminovna Ikromova, The Concept Of Pedagogical Skills, Its Role And Importance In Teaching. The American Journal of Applied Sciences (ISSN – 2689-0992).